

MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARI TARKIBI VA UNDA SOLIQLARNING ROLI

Zaylobiddinov Mirkomiljon Abdulhamid o'g'li

TDIU magistranti.

mirkomil12081999@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14578677>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalliy byudjet daromadlarining tarkibi va unda soliqlarning o'rni tahlil qilingan. Soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi asosiy vazifalari, ularning ahamiyati hamda mahalliy hokimiyatlar daromadlarini oshirishga qaratilgan tizimli yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning soliqlarni boshqarish, ularni taqsimlash va mahalliy byudjetlar daromadlarini barqarorlashtirish bo'yicha ilmiy qarashlari o'rganilgan. Mahalliy byudjetning barqarorligini ta'minlashda soliqlarning o'rnini mustahkamlashga oid nazariy va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mahalliy byudjet, byudjet daromadlari, soliqlar, soliq tushumlari, mahalliy hokimiyatlar, byudjet barqarorligi, soliq tizimi.

THE STRUCTURE OF LOCAL BUDGET REVENUES AND THE ROLE OF TAXES IN IT

Abstract. This article analyzes the composition of local budget revenues and the role of taxes within it. The main functions of taxes in forming budget revenues, their significance, and systematic approaches aimed at increasing the income of local authorities are discussed. Additionally, the scientific views of foreign and local economists on managing taxes, their distribution, and stabilizing local budget revenues are explored. The article provides theoretical and practical recommendations for strengthening the role of taxes in ensuring the stability of local budgets.

Keywords: Local budget, budget revenues, taxes, tax revenues, local authorities, budget stability, tax system.

СОСТАВ ДОХОДОВ МЕСТНОГО БЮДЖЕТА И РОЛЬ В НЕМ НАЛОГОВ.

Аннотация. В статье анализируется состав доходов местного бюджета и роль в нем налогов. Рассмотрены основные задачи налогов в формировании доходов бюджета, их значение и системные подходы, направленные на увеличение доходов органов местного самоуправления. Также изучены научные взгляды зарубежных и отечественных экономистов на управление налогами, их распределение и стабилизацию доходов местных бюджетов. Даны теоретические и практические рекомендации по усилению роли налогов в обеспечении стабильности местного бюджета.

Ключевые слова: Местный бюджет, доходы бюджета, налоги, налоговые поступления, местные органы власти, устойчивость бюджета, налоговая система.

Kirish. Davlat moliyasining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan mahalliy byudjetlar davlat byudjetining asosiy bo'g'inlaridan biri sifatida o'ziga xos o'r'in tutadi. Mahalliy byudjetlar aholi ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, mahalliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash kabi bir qator vazifalarni amalga oshirishda davlat moliyasining qudratli vositasi hisoblanadi. Mahalliy byudjetlarning davlat byudjetidagi tutgan o'rni avvalo hududiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda yaqqol namoyon bo'ladi.

Bu byudjetlar hududlar bo'yicha iqtisodiy faollikni tartibga solish, ichki resurslarni safarbar etish va mahalliy aholining farovonligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mahalliy byudjetlar davlatning fiskal siyosatini amalga oshirishda quyi bo'g'in hisoblanib, ular orqali ijtimoiy va iqtisodiy dasturlar joylardagi real sharoitga moslashtiriladi.

Mahalliy byudjet daromadlari tarkibida soliqlar alohida o'rinni egallaydi. Soliqlar mahalliy hokimiyatlar uchun asosiy moliyaviy manba hisoblanib, ular hududiy loyihalarni moliyalashtirishda va iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishda foydalaniladi. Soliqlarning mahalliy byudjetdagi ulushi hudud iqtisodiyoti barqarorligini oshirish, mahalliy muammolarni hal etish va aholi turmush darajasini yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Soliq tushumlari davlatning umumiy fiskal siyosatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, milliy byudjetning barqarorligini ta'minlashda xizmat qiladi. Shu bois mahalliy byudjet va uning daromadlar tarkibi, xususan, soliqlar iqtisodiy barqarorlik va mahalliy boshqaruv tizimining samaradorligi bilan uzviy bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI.


Mahalliy byudjet daromadlarining tarkibi va uni shakllantiruvchi soliqlar mohiyati, ularning vazifalari, xususiyatlari hamda yuzaga keladigan muammolar xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, T. Gobbs, A. Smit, D. Rikardo, U. Petti, M. Lorents, R. Kempbell, K. Makkonnel, G. Menkyu, G. Buehler, A. Laffer, R. Musgrave, F. Ramsey, N. Turgenev, kabi olimlarning ilmiy ishlari bu sohada muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mahalliy iqtisodchi olimlar, jumladan, O. Abdurahmonov, E. Gadoyev, A. Jo'rayev, A. Islamqulov, T. Malikov, I. Niyazmetov, O. Olimjonov, X. Sobirov, Sh. Toshmatov, kabi mutaxassislar ham soliqlar va ularning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rnini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etgan.

Masalan, iqtisodchi Sh. Toshmatov mahalliy byudjet tushumlarini ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'rganib, soliqlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash tizimini takomillashtirish bo'yicha fikrlar bildirgan. U mahalliy hokimiyatlarning soliqlardan tushgan daromadlarni oshirishga bo'lган qiziqishini kuchaytirish, hududiy soliq salohiyatini aniqlash hamda mahalliy soliqlarni undirish mexanizmini yaxshilash masalalarini tahlil qilgan.

Iqtisodchi A. Xayriddinov esa mahalliy soliq tushumlarini doimiy va qat'iy foizda mahalliy byudjetga qoldirish mexanizmini ishlab chiqishni taklif qilgan. Uning tadqiqotlariga ko'ra, ma'lum davlat soliqlaridan tushgan mablag'lar mahalliy byudjetga biriktirilgan daromad sifatida belgilanishi lozim. Bu olimlarning yondashuvlari mahalliy byudjetni barqarorlashtirish va uning soliqlarga asoslangan daromad salohiyatini oshirishga qaratilgan nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Har bir mahalliy byudjetning moliyaviy barqarorligi, asosan, uning daromadlari va xarajatlarining hajmi hamda tuzilmasiga bog'liqidir. Agar mahalliy byudjet daromadlarining shakllanishi hajman uning xarajatlarini qoplashga yetarli bo'lsa, bunday byudjet moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy byudjetlarning daromad manbalari va ularning tarkibini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Mahalliy byudjetlar daromadlarining tarkibi¹

2020-yildan O'zbekiston Respublikasining “2020-YIL UCHUN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BUDJETI TO'G'RISIDA”GI QONUNIga ko'ra byudjet tizimida daromadlarni byudjet bo'g'inlari asosida taqsimlashning yangi mexanizmi amal qilmoqda. Unga ko'ra, mahalliy byudjetlar daromadlari bugungi kunda biriktirilgan daromadlar, tartibga soluvchi (byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanadigan) daromadlar va moliyaviy transfertlarga ajratiladi (1-rasm).

1. Mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlari – bu byudjet qonunchligiga ko'ra, tegishli tuman, shahar va Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga to'liq hajmda biriktiriladigan, o'tkaziladigan daromad turlari tushuniladi.

2. Mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari – bu byudjet qonunchiligidagi belgilangan miqdorlarda respublika byudjeti va Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari o'rtasida taqsimlanadigan ayrim daromad turlari tushuniladi. Shuningdek, bu toifadagi daromadlarga Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjeti, Toshkent shahrining shahar byudjeti bilan ularga bo'ysunuvchi tuman va shaharlar byudjetlari o'rtasida taqsimlanadigan daromadlar ham kiradi.

Hozirgi kunda Mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlariga soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar byudjetlariga to'liq hajmda o'tkaziladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

¹ Fuqarolar ishtirokidagi mahalliy byudjet: O'quv qo'llanma / U.Yu.O'roqov. T.: © OOO “DIADEMA NUR SERVIS”, 2024. 216 b, 12 b.

• mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

• suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

• noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Quyidagilar Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

• yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

• yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

• elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

• benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

• aylanmadan olinadigan soliq;

• tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari), shuningdek mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar, tegishinchal o'tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligidan olingan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

Bunda daromadlar bo'yicha prognozning bajarilmagan qismi Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga respublika byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi, daromadlar bo'yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika byudjeti ixtiyorida qoladi.

Mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari - O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti qonunchiligidagi belgilangan miqdorlarda taqsimlanadigan quyidagi daromadlar respublika byudjeti va Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari o'rtaida taqsimlanadi:

• jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

• foya solig'i;

• davlat bojlari;

• jarimalar;

• yig'imlar;

• davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

• davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan tushumlar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari:

– tegishli darajadagi mahalliy byudjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdag'i daromadlarni hamda byudjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

– yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i tushumlarini tumanlar va shaharlar byudjetlariga yo'naltirishga;

– daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingen mablag'larning bir qismini tumanlar va shaharlar byudjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli. Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida mol-mulkni ijara beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlarga o'sib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etishga haqlidir.

Mahalliy byudjetlar daromadlarining tarkibi va miqdori²

mlrd. so'm

№	Daromadlar	2023-yil	2024-yil	o'zgarish (%)	2023-yil ulushi (%)	2024-yil ulushi (%)
1	Biriktirilgan daromadlar	25 569,90	31 451,40	23,0	32,27	41,99
1.1	Aylanmadan olinadigan soliq	2 811,70	2 851,10	1,4	3,55	3,81
1.2	Mol-mulkni ijara berishdan va yakka tartibdag'i tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	422,6	453,3	7,3	0,53	0,61
1.3	Benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	3 895,80	5 290,40	35,8	4,92	7,06
1.4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 058,80	4 346,40	42,1	3,86	5,80
1.5	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	1 273,80	2 368,40	85,9	1,61	3,16
1.6	Yer soligi	5 805,50	7 171,10	23,5	7,33	9,57
1.7	Noruda qurilish materiallari bo'yicha	755,5	393,9	-47,9	0,95	0,53

² O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjeti to'g'risida"gi 30.12.2022-yildagi O'RQ-813-son va 25.12.2023-yildagi O'RQ-886-son Qonunlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq						
1.8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno	799,5	1 261,10	57,7	1,01	1,68
2	Tartibga soluvchi daromadlar*	23 594,40	26 608,70	12,8	29,78	35,53
2.1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	17 886,50	22 056,50	23,3	22,58	29,45
2.2	Foyda solig'i	5 708,00	4 552,30	-20,2	7,20	6,08
2.3	Yig'imlar	1 316,80	1 770,40	34,4	1,66	2,36
2.4	Davlat bojlari	2 707,40	2 508,20	-7,4	3,42	3,35
2.5	Ijara to'lovleri	126,3	59,1	-53,2	0,16	0,08
2.6	Jarimalar	1 904,80	2 174,60	14,2	2,40	2,90
2.7	Davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan tushumlar	500	300	-40,0	0,63	0,40
2.8	Davlat korxonalarining sof foydasidan ajratmalar	191,4	503,3	163,0	0,24	0,67
2.9	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'i	2 339,00	2 701,00	15,5	2,95	3,61
2.10	Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i	1 045,40	1 088,00	4,1	1,32	1,45
2.11	Tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig'i	2 397,30	2 442,20	1,9	3,03	3,26
	Jami soliqli va soliqsiz daromadlar	54 946,00	58 060,10	5,7	69,35	77,52
3	Transfertlar	24 280,90	16 836,60	-30,7	30,65	22,48
	JAMI	79 226,90	74 896,70	-5,5	100,00	100,00

* bu yerda ushbu daromadlarning faqat mahalliy byudjetda qoldirilgan qismi ko'rsatilgan

Yuqorida berilgan jadvaldan Mahalliy byudjet daromadlari tahlilini yanada chuqurroq ko'rib chiqadigan bo'lsak:

1. Biriktirilgan daromadlari 2024 yilda 23,0% ga oshgan, bu esa mahalliy byudjetlarning barqaror o'sishini ko'rsatadi. Biroq, turli daromad turlarida farqlar mavjud, ular quyidagicha:

- Aylanmadan olinadigan soliqning juda kichik o'sishi (1,4%) bo'yicha tahlil qilish kerak. Bu, ehtimol, iqtisodiyotda o'sishning past darajalarini yoki inflyatsiya ta'sirini ko'rsatadi.

Bunday soliq o'zgarishi iqtisodiyotdagi umumiy faollik bilan bevosita bog'liq, ya'ni aholi va bizneslarning xarid qilish quvvati oshmagan bo'lishi mumkin.

- Mol-mulkni ijaraga berishdan va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i (7,3% o'sish) - bu soliqning oshishi yer va mol-mulk bozorining yaxshilanishiga va yakka tartibdagi tadbirkorlarning ko'payishiga ishora qiladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va kichik biznes uchun qo'llab-quvvatlovchi siyosatlar va rivojlanish sharoitlari bu soliqning o'sishiga turtki bo'lishi mumkin.

- Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i (35,8% o'sish) - aksiz solig'idagi bunday katta o'sish iqtisodiyotda energiya resurslariga bo'lган talabning ortganligini yoki narxlarning oshganligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu o'sish ekologik va iqtisodiy siyosatlarda aksiz solig'iga qaratilgan strategiyalarni aks ettirishi mumkin.

- Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'inинг 85,9% ga oshishi juda sezilarli. Bu o'sish, ehtimol, ko'proq jismoniy shaxslarning mol-mulk sotib olishga yoki sotishga moyil bo'lishi, shuningdek, mulk narxlarining oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, soliq stavkalarining oshirilganligini yoki yangi turlari qo'shilganligini ko'rsatadi.

- Yer solig'inинг o'sishi (23,5%) yer qiymatining oshganligi yoki yer bozorining faollashganligini bildiradi. Yangi qurilishlar yoki yerga bo'lган talabning ortishi natijasida bu soliqdan tushumlar oshmoqda.

- Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (57,7% o'sish) - suv resurslaridan foydalanishning ko'payganligini ko'rsatadi. Bu holat suv resurslari bo'yicha yangi qonunchilik yoki regulatsiyalar kiritilganligini va suvgaga bo'lган ehtiyojning ortganligini anglatishi mumkin.

Tartibga soluvchi daromadlar 2024 yilda 12,8% ga oshgan, bu mahalliy byudjetlarga asosiy qo'shimcha daromadlar keltiruvchi bo'limdir. Mahalliy byudjetlar daromadlarining tarkibida Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inинг salmog'I deyarli 30 % ni tashkil etgan va bu 2023 yilga nisbatan o'sishi 23,3% o'sish demakdir. Bu esa holi daromadlarining oshgani va iqtisodiy faollikning ko'payganligini bildiradi. Bu o'zgarish soliq yig'ishning samarali tizimlari va iqtisodiy o'sish natijasida amalga oshmoqda. Foyda solig'inинг 20,2% ga kamayishi biznes sektori daromadlarining pasayganligini yoki foyda solig'inинг stavkalarining o'zgorganligini ko'rsatadi. Bu, shuningdek, iqtisodiy inqirozlar yoki bozordagi raqobatning kuchayishi tufayli bo'lishi mumkin. Yig'imlar segmenti o'sishning (34,4%) ko'rsatkichidir, bu mablag'larning mahalliy byudjetlarga ko'proq to'planishini anglatadi. Mahalliy bo'g'inlarda byudjetga qo'shimcha mablag'lar kiritilishi mumkin. Davlat bojlari tushumlarining kamayishi qisman mahalliy bo'g'inlar va davlat o'rtaсидаги iqtisodiy munosabatlarda o'zgarishlar bilan izohlanishi mumkin. Ba'zi bojlardan tushumlar kamayishi natijasida mahalliy byudjetga kiritiladigan mablag'lar qisqaradi.

Transferlarning kamayishi, asosan, markaziy hukumatdan mahalliy byudjetlarga yuborilgan mablag'larning qisqarishini ko'rsatadi. Bu holat davlatning markazlashgan byudjetdan mahalliy bo'g'lnlarga ajratmalarini kamayganligini bildiradi, va mahalliy byudjetlarning ko'proq o'z mablag'lari tayanganligini anglatadi. Ijara to'lovlarining katta kamayishi davlat mulkini sotish yoki ijaraga berishdan tushgan daromadlarning sezilarli pasayganligini bildiradi. Bu iqtisodiy vaziyatga, bozor o'zgarishlariga yoki davlat siyosatiga qarab o'zgarishi mumkin.

2023-2024-yillar uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'loving eng kam stavkalari³

So'm

T/r	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko'rsatkich	Oylik ijara to'lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so'mda			
			Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazi bo'lgan shaharlar	boshqa aholi punktlari	
1. Binolar:						
	turar joy	umumiyl maydonning 1 kv.metri uchun	(2023-yil) 17 000	(2023-yil) 10 500	(2023-yil) 4 500	
			(2024-yil) 25 000	(2023-yil) 12 000	(2023-yil) 5 000	
	noturar joy		(2023-yil) 35 000	(2023-yil) 20 500	(2023-yil) 8 300	
			(2024-yil) 40 000	(2024-yil) 23 500	(2024-yil) 10 000	
2. Avtomobil transporti:						
	yengil avtomobil (yo'lovchilar, bagaj tashishga mo'ljallangan hamda haydovchi o'rnini hisoblamaganda, o'rindiqlari soni 8 tadan ko'p bo'limgan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	695 000 (2023-yil)			
			780 000 (2024-yil)			
				1 375 000 (2023-yil)		
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobilari				1 550 000 (2023-yil)	

2023-2024-yillar uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'loving eng kam stavkalarini bo'yicha ijara to'lov stavkasining 2024-yil uchun o'rtacha

³ O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjeti to'g'risida"gi 30.12.2022-yildagi O'RQ-813-sodan va 25.12.2023-yildagi O'RQ-886-sodan Qonunlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

geometrik o'zgarishi 4,03 % ni tashkil etgan bo'lsa 2023-yilda ijara to'lovlari bo'yicha. Ijara to'lovlari (-53,2% kamayish) 126,3 mlrd.so'mdan 59,1mlrd.so'mga keskin tushgan. Garchi Ijara to'lovlaringin mahalliy byudjet daromadlaridagi ulushi 1% ga ham yetmasada 2024 yilga bu ko'rsatkich yanada pasaygan.

2024-yilda uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalarining o'rtacha arifmatik va geometrik o'zgarishi

So'm

2023	2024	o'zgarish(%)
17000	25000	47,1
10500	12000	14,3
4500	5000	11,1
35000	40000	14,3
20500	23500	14,6
8300	10000	20,5
695000	780000	12,2
1375000	1550000	12,7
	o'rtacha geometrik	4.03
	o'rtacha arifmetik	18,4

Manbaa: Muallif ishlanmasi

Ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining to'lov stavkasining 2024-yil uchun o'rtacha geometrik o'zgarishi 4,03 % deb qaralsa 2024-yilda 131,4 mlrd.so'mga yetishi kerak edi. Bu o'z o'zidan bu sohada soliq satvkalarining o'zgarishi (oshishi) undan keladigan daromadlarga jiddiy ta'sir qilganligini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabr, 223-sonli "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra:

Tuman (shahar) mahalliy byudjetlarining xarajatlarini bosqichma-bosqich to'liq o'z daromadlari va ichki manbalar hisobidan qoplashga o'tishi rejalashtirilmoqda. Shu maqsadda Oliy Majlis Senati va Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror qabul qilgan holda, quyidagi moliyaviy imkoniyat va vakolatlar belgilangan:

a) 2025-yil 1-yanvardan boshlab, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i, mol-mulkni ijaraga berishdan tushgan daromadlar va boshqa tegishli tushumlar (jumladan, noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanish solig'i) bevosita tuman (shahar) byudjetlariga biriktiriladi.

b) Tuman (shahar) mahalliy byudjetlarining o'z daromadlari bazasini kengaytirish uchun 500 milliard so'm mablag' mahalliy byudjetga o'tkaziladi. Ushbu mablag' o'z daromadlar bazasini oshirish maqsadida yo'naltirilishi rejalashtiriladi.

c) Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va foyda solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari

qarorlari asosida tuman (shahar) darajasidagi mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi belgilangan.

d) Har bir tuman (shahar) byudjeti daromadlarini oshirib bajarishning 50 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tasarrufida qolishi nazarda tutilgan. Ushbu mablag'lar tuman (shahar) byudjetlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlariga yo'naltirilishi belgilab qo'yilgan.

Shu tariqa, kelgusida mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash choralarini ko'rildi. Bu farmon kelgusi yillarda mahalliy byudjet daromadlarini hamda daromadlar bazasini mustahkamlashda o'z samarasini ko'rsatmay qolmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

- Mahalliy byudjetning o'sishi: Biriktirilgan daromadlar va tartibga soluvchi daromadlarning o'sishi mahalliy byudjetning mustahkamlanishini ko'rsatadi. Ammo ayrim soliq turlari (foyda solig'i va transfertlar)ning kamayishi mahalliy byudjetning barqarorligini ta'minlashda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.
- Soliq tizimi: Mol-mulk, yer, va suv resurslaridan olingen soliqdagi sezilarli o'sish iqtisodiyotning turli sektorlarida rivojlanish va ehtiyojning ortganligini ko'rsatadi. Shuningdek, energiya resurslariga aksiz solig'ining oshishi o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga moslashuvni anglatadi.
 - Mahalliy byudjetni mustahkamlash uchun strategiyalar: Transfertlarning kamayishi va ba'zi soliqlardan tushumlarning qisqarishi mahalliy byudjetni o'z mablag'lariga ko'proq tayanishga majbur qilmoqda. Shuning uchun, mahalliy byudjetni mustahkamlash uchun yangi soliq strategiyalari, resurslarni samarali boshqarish va iqtisodiy faoliytni oshirish zarur bo'ladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjeti to'g'risida"gi 30.12.2022-yildagi O'RQ-813-son va 25.12.2023-yildagi O'RQ-886-slon Qonunlari
2. O'zbekiston Respublikasining 24.12.2018 yildagi "Soliq va budjet siyosatining 2019 yilga mo'ljallangan asosiyo yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-508 son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabr, 223-soni "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2021 y.
5. Achilov U.U. "Byudjet tasnifi" fanidan o'quv-uslubiy majmua.—T.: TMI, 2019.
6. G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: "Baktria press", 2016 y.
7. Nurmuxamedova B.I. Davlat budjeti. Darslik. – T.: "IQTISOD MOLIYA", 2018. -630 b.

8. Uroqov Uchqun, Yuldasheva Nadira, Nuritdinova Vasilisa, Tukhtabayeva Sogdiana. Budgetary methods for local budgets. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. DOI: 10.5373/JARDCS/V12I6/ S20201165
9. Uroqov Uchqun. Increasing the independence of local budgets in the social and economic development of the regions. // International Journal of Economics, Commerce and Management. United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol.VII, Issue12, December 2019
10. Uchqun O‘roqov, Ilhom Irgashev, Orzimurod G‘aybullayev “Fuqarolar ishtirokidagi mahalliy byudjet” 2022